

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| X.M.Matqulov | |
| Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek..... | 372 |
| D.M.Uktamovna | |
| "Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi ... | 377 |
| M.B.Siddiqov | |
| Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli..... | 381 |
| S.S.Abdullayev, D.M.Obidova | |
| Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi | 387 |
| R.I.Madaliev | |
| Artpedagogika vositasida (teatr sa'nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari | 391 |
| D.Z.Xudaykulova | |
| Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari..... | 395 |
| Sh.A.Dosbayeva | |
| Mantiqiy fikrlesh mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish..... | 402 |
| D.A.Xomidova | |
| Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish..... | 408 |
| B.S.Sharipova | |
| Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati..... | 412 |
| T.S.Axmedova | |
| Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish | 416 |
| N.M.Aliyev | |
| Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli | 420 |
| A.E.Normatov | |
| Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalash | 425 |
| I.O.Umarov | |
| Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta'lif talabalarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi | 428 |
| X.A.Madaminov | |
| Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi | 433 |
| B.Q.Qurbanova, M.Esonmirzayeva | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya fani asosida milliy kasibga yo'nalrishning usul va metodlari..... | 437 |
| S.M.Boboraximov | |
| Kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati | 441 |
| N.A.Akbarova | |
| Farg'onasi viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti va natijalari | 445 |
| A.A.To'raxonov, A.A.Ergashev | |
| Alovida ta'lif ehtiyojiga ega o'quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari | 450 |
| M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova | |
| Umumta'lif muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida)..... | 457 |



УО'К: 378.014.15

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA BIOETIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ К ФОРМИРОВАНИЮ БИОЭТИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ У УЧАЩИХСЯ

THE SOCIO-PEDAGOGICAL NECESSITY OF PREPARING FUTURE BIOLOGY TEACHERS FOR THE FORMATION OF BIOETHICAL KNOWLEDGE IN STUDENTS

Sharipova Barno Salimovna

Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari, bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning amaliy metodik tizimi atroflicha tadqiq qilingan. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье подробно исследованы теоретико-методологические основы подготовки будущих учителей биологии к формированию биоэтических знаний у учащихся, а также практическо-методическая система подготовки к формированию биоэтических знаний. Анализируется социально-педагогическая необходимость подготовки будущих учителей биологии к формированию биоэтических знаний у учащихся.

Abstract

In this article, the theoretical-methodological foundations of preparing future biology teachers for the formation of bioethical knowledge in students, and the practical methodical system of preparing for the formation of bioethical knowledge are thoroughly researched. The socio-pedagogical necessity of preparing future biology teachers for the formation of bioethical knowledge in students is analyzed.

Kalit so'zlar: bioetik madaniyat, madaniyat, bioetika, axloqiy me'yor, axloqiy ijtimoiy taraqqiyot, tamoyil, fasilitatsion texnologiya, integrativ, korporativ, motivatsion.

Ключевые слова: биоэтическая культура, культура, биоэтика, этический стандарт, этическое социальное развитие, принцип, способствующие технологии, интегративный, корпоративный, мотивационный.

Key words: bioethical culture, culture, bioethics, ethical standard, ethical social development, principle, facilitating technology, integrative, corporate, motivational.

KIRISH

Dunyoning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotining yangi bosqichida fan-texnika yutuqlari, bioteknologiyalarning rivojlanishi hamda ularning tibbiyat va sog'liqni saqlash va amaliyatiga keng joriy qilinishi natijasida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash zarurati bugun barcha fan sohalari kabi falsafaning oldiga ham yechimini kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni qo'yamoqda.

Tibbiyotga bozor munosabatlarning kirib kelishi, farmakologiyaning jadal rivojlanishi, tibbiyat va farmakologiyada xususiy sektor ulushi ortishi, sog'liqni saqlash sohasidagi degumanizatsiyalashuv jarayonlari, yangi ilmiy va tibbiy texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy muammolari, inson va tabiat munosabatlaridagi muvozanatning o'zgarishi, ekologik muammolarning keskinlashuvi, turli pandemiyalarning jumladan, COVID-19 pandemiyasi kabi global muammolarning o'tkirlashuvi bioetik dunyoqarashni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, bioetikaning amaliy falsafa sifatidagi o'rniqa talab oshmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bioetika fanlararo fenomen bo'lib, biologiya va tibbiyotning jadal rivoji insoniyat oldida zudlik bilan yechilishi lozim bo'lgan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi vaqtida zamонави杨 falsafa

ILMIY AXBOROT

va bioetika o'rtasidagi bog'liqlik ko'p holatlar uchun katta ahamiyatga ega. Bioetika va falsafani umumiyligi bilan birligini belgilaydigan "umumiy nuqtai nazar" bu - mavjudlik va hayotdir. Bioetika va falsafaning bir butun muammosi - himoya va havfsizlikdir. Bunda birinchidan, mavjudlikni himoya qilsa. Ikkinchidan, hayot va insonlarning havfsizligini kuchli taminlash madaniyatidir. O'zbekistonlik olimlardan B. Ziyomuxamedov, A.S.To'xtaev, E.V.Qodirov, O.Qudratov, J.Xolmurodov, A.N.Nigmatov kabilar o'z tadqiqotlarida bioetika tushunchasi, uning mazmuni, atrof-muhit va inson munosabatlarining turli iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy aspektlari, ekologik ta'larning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rgangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlash chuqr falsafiy asos, universal axloqiy mavqega ega bo'lib, uning tadqiqot doirasi inson salomatligi, shaxsiy daxlsizligi, zamonaviy biotexnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-ma'naviy mezonlari kabi ko'plab dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlash zamonaviy madaniyatning murakkab tarkibiy qismi bo'lib, ilm-fan va biotibbiy texnologiyalar yutuqlarining axloqiy oqibatlarini o'rganuvchi, tahlil qiluvchi, insoniyatning jamiki "tiriklik"ka oqilona munosabatini ifodalaydigan ta'limot. Jamiat taraqqiyotiga bioetikaning ta'sirini tahlil qilish, bioetikaning mohiyatini tushunish va uning ilmiy, falsafiy, axloqiy bilimlar tizimida tutgan o'rnnini tushunishdan boshlanadi. Bioetikaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish, uning ta'limot, fan, nazorat mexanizmi sifatidagi mohiyatini kengroq tushunishga imkon beradi.

Pedagogika va falsafaning babs-munozaraga sabab bo'layotgan masalalarini chuqr tadqiq etayotgan soha sifatida biz bioetikani keltirishimiz mumkin. Mazkur fan sohasi o'zining uzoq o'tmishiga ega bo'lmasa-da, uning muammolari doirasi qadimdan mavjud bo'lgan. Vrach va bemor munosabatlarining axloqiy jihatlari, evtanaziya va o'lim, inson a'zolarini transplantatsiya qilish, homila tushirish (abort), klonlash, irsiy injeneriya muammolarini falsafiy talqin qilish nafaqat jahon falsafasi balki milliy falsafiy tafakkurga xos bo'lgan xususiyatdir. Chunki mazkur muammoga qiziqish shuni ko'rsatdiki, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib falsafa va fan oralig'ida bioetika muammosini o'rganish bo'yicha muayyan ma'nodagi obekativ bilimlar tizimi shakllandi. Shu nuqtai-nazardan hozirgi kunda mazkur masala axloq falsafasining ilmiy tadqiqotlar sohasiga kiritilgan bo'lib, u juda ko'p mutaxassislar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Shuningdek, XX asrning oxirlarida tibbiy adabiyotlarda bioetika muammolariga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy risolalar chop etildi.

"Bioetika" atamasi ilmiy iste'moldagi nisbatan yangi atama hisoblanadi. Ushbu atamani paydo bo'lishi haqida ilmiy adabiyotlarda ikki xil qarash mavjud. Ayrim manbalarda ushbu atamani Amerikalik mashhur onkolog vrach Van Ranseler Potter (1911-2001) ilk bor ilmiy muomalaga kiritgan, degan yondashuvlar mavjud va bu asosan rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ingliz va nemis tilidagi ayrim manbalarda esa, nemis ilohiyotchisi Frits Jaxr 1927-yil "Kosmos" jurnalida e'lon qilgan maqolasida "Bio-Ethik" terminini ishlatgani ammo, amerikalim olim V.R.Potter tomonidan ushbu atama yaxshiroq ifodalanganligi aytib o'tilgan.

Har ikki holatda ham bioetikaning shakllanishi va rivojlanishida Potternning hissasi beqiyos. Potter insoniyat farovonlikka erishish uchun ijtimoiy va tabiiy fanlar o'z ilmiy yutuqlarini uyg'unlashtirishi lozimligini, "Omon qolish fani shunchaki fan emas, ikki muhim va zaruriy elementlar – biologik bilim va axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan yangi donishmandlik bo'lishi kerak" ligini ta'kidlaydi.

U o'zining "Bioetika – kelajakka ko'prik" kitobida "bioetika" atamasini ilmiy izohini berish bilan bir qatorda xalqaro amaliyotda keng quloch yoygan etika bo'yicha fanlararo qo'mitalar tashkil etish g'oyasini ham ilgari surgan. Bu olimning asosiy g'oyasi yer yuzida hayotni saqlab qolish maqsadida guumanitar fanlar va biologiya fani muammolarini o'zaro hamjihatlikda hal etishdan iborat bo'lgan. Uning fikricha, aynan "Normal va barqaror sivilizatsiyada insonning tur sifatida uzoq muddat yashab qolishi etika normalari tizimini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi". Etika normalarining mazkur tizimini V.R.Potter "global bioetika" deb nomlaydi. Global bioetikani tibbiyot etikasi, bioetika, atrof muhit etikasiga bo'linishini ilmiy jihatdan isbotlab beradi. Potternning fikriga ko'ra, "Bioetika insoniyatning yashab qolishini ta'minlash va butun kishilik jamiyatining sog'lig'ini saqlash uchun tibbiyot etikasi bilan atrof muhit etikasi (ekoetika)ni jahon miqyosida birlashtiruvchi ko'prik bo'lishi lozim"

Bioetika yangi fan sohasi, uning paydo bo'lishiga texnologiya taraqqiyotning inqilobiy yangiliklari va ularning amaliyatga joriy etilishi, shu bilan birligida insonparvarlik tendensiyalarining kuchayishi sabab bo'ldi. Bioetikaning obyekti insonning ilmiy tadqiqotlari va butun ekotizim hayoti o'rtaqidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy-axloqiy mezonlardir.

1978-yil chop etilgan "Bioetika ensiklopediyasi" da Bioetikaga "Hayot va salomatlik fanlari doirasida insonning axloqiy qadriyatlar va tamoyillarga asoslangan xatti-harakatlarini tizimli o'rganish" – deb ta'rif beriladi. Ushbu ta'rif bioetikaning dastlabki ta'rifi sifatida nisbatan torroq mazmun kasb etgan. Keyinchalik, bioetika doirasida tadqiqotlar, ilmiy izlanishlarning kengayishi bioetikaning falsafiy mazmuniga nisbatan yangicha yondashuvlar vujudga kelishiga olib keldi.

1995-yil nashr etilgan "Bioetika ensiklopediyasi"ning yangi nashrida bioetikaga "Fanlararo shakllangan turli xil axloqiy metodologiyalar yordamida hayat va tibbiy davolanish fanlari doirasida axloqiy parametrlarni – axloqiy baho, qarorlar, hatti-harakatlar, ko'rsatmalar va boshqalarni - tizimli o'rganish" – deb ta'rif beriladi. Bu esa, ushbu atamaning mohiyati yanada aniqlashtirib borilganini, bioetika chegaralarining kengayganini ko'rsatadi. Ushbu aniqlashtirilgan, kengaytirilgan yondashuvlar bioetikaning huquqiy asoslari yaratilishiga ham zamin bo'lgan.

Bioetikaning bahs doirasi (ko'rib chiqishi kerak bo'lган tushunchalar, voqeliklar)ni aniqlashtirish uning asosiy metodologik muammolaridan biridir. Bioetikaning bahs doirasini belgilashda 1991-yil Italiyaning Eris shahrida bo'lib o'tgan bioetikaning tibbiy etika va sud tibbiyotiga ta'siriga bag'ishlangan simpozium muhim rol o'ynadi. Simpozium natijasida bioetikaga asosiy yondashuvlarni va uning ta'sir doirasini ifodalovchi xujjat vujudga keldi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlash butun biologik olam va unga insonning munosabati natijasida mavjud bo'ladijan muammo va masalalarni o'z ta'sir doirasiga oladi. M.A.Nikulina o'z asarlarida bioetika muammolarini quyidagi guruhlarga ajratadi:

"Tibbiy etika (tibbiyot xodimlarining kasb axloqi);

Insonlar hayoti, sog'lig'i, ruhiy va ma'naviy dunyosi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarning axloqiy muammolari;

Gen injeneriyasi, transplantologiya (organ va to'qimalarni ko'chirish), evtanaziya;

Sog'liqni saqlash tizimini boshqarish, farmakologiya va xususiy tibbiy xizmat (xususiy tibbiy xizmatda mijoz-bemor manfaatlari) bilan bog'liq masalalar;

Demografik nazorat, reproduktiv salomatlik va oilani rejalashtirish masalalari;

Og'ir kasalliklarning so'ngi bosqichida bo'lgan bemorlarga yordam berish (Xospis va palliativ yordam ko'rsatish markazlari),

Insonning biologik olamdagisi (o'simliklar, hayvonlar) ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog'liq masalalar va boshqalar."

Ushbu tavsiflash bioetika muammolarini to'liq o'z ichiga olgan. Bugun dunyoning turli burchaklarida bioetika muammolari to'g'risida baxs-munozaralar davom etmoqda. Bu muammolarga ilmiy, axloqiy va diniy yondashuvlar tahlil qilinmoqda.

A.B.Sadju yondashuviga ko'ra, bioetik analiz asosida axloq tamoyillari va qoidalari yotishi kerak. Zero, bioetika - bu biotibbiyot fanining rivojlanishi va sog'liqni saqlash amaliyotiga eng yangi texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan axloqiy, falsafiy va antropologik muammolarni tadqiq etish sohasidir. Shu boisdan ham bugungi kunda tabiiy hamda sun'iy hayat o'rtaqidagi farq va o'zaro aloqadorlik muammosini o'rganishda bioetika sohasi vakillari o'ziga xos ilmiy qarashlarni ilgari suradilar. Jumladan, insonlar hayotini loyihalash va sintez qilish g'oyasi bugungi jamiyatning yangi konsepsiyasini yanada boyitib borayotgan inqilobiy biotexnologiyalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirdi.

XULOSA

Biroq, bu jarayon o'zining ijobjiy tomonlarini namoyish etish bilan bir qatorda ko'plab ijtimoiy muammolarni ham paydo bo'lishiga sababchi bo'ldi. Bular inson hayatiga aralashuv, salomatligini saqlash yo'lida ilimiyl-tibbiy texnologiyalardan foydalanish, yordamchi reproduktiv texnologiyalarning inson nasliga aralashuvi bog'liq axloqiy muammolar, tabiatga nooqilona munosabat natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, salomatlikni saqlash va tibbiy sohada turli darajada ijtimoiy adolatni ta'minlash muammolari, inson huquqlari bilan bog'liq muammolar shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown M.B. Three ways to politicize bioethics. – Mode of access: <http://www.csus.edu/indiv/b/brownm> (last download: 19.01.2015)
2. Islas, D. S. C. (2018). An Analogical Hermeneutic Approach to Bioethics., Sass, Hans-Martin. "Bioethik – Bioethics." Archiv Für Begriffsgeschichte, vol. 56, Temporary Publisher, 2014, pp. 221–28, <http://www.jstor.org/stable/24361919>.
3. Potter, V. R. Bioética Global: Construindo a partir do Legado de Leopold. Tradução de Cecília Camargo Bartalotti. São Paulo: Loyola, 2018a.
4. Reindtorff J.D., Kemp P. (eds.). Basic ethical principles in European bioethics and biolaw. Vol. I: Autonomy, dignity, integrity and vulnerability. 428 p.; Vol.II: Partners research. Barselona 2000.
5. Reich, W. T. (1978). Encyclopedia of Bioethics Volume 1. The Free Press.
6. Маркова Светлана Васильевна Организация семинара-дискуссии по биоэтике // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. 2014. №38. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-seminara-diskussii-po-bioetike>
7. Никулина М. А. Биоэтика как институциональный механизм социального контроля современного научного знания // ИВД. 2014. №4-1.
8. Поттер В.Р. Биоэтика: мост в будущее. Киев: Сфера, 2002. 216 с.–с. 9
9. Седова Н.Н., Сергеева Н.В. Биоэтика в пространстве культуры. М Триумф 2010. - 336с.